

CHET TILINI (INGLIZ TILI) O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR

¹Qurbonova Nasiba,

²O'ktamova Madina

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

Yo'nalishi 750-20 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7461164>

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy usullar va texnologiyalardan samarali foydalanish haqida ma'lumot beradi. Bu maqolada o'qituvchilarning tillarni o'rganish va o'rgatish uchun zarur bo'lgan innovatsion metodlardan keng foydalanishdagi ahamiyati yoritilgan.

Key words: chet tili, innovatsion, texnologiya, texnologik vositalar, zamonaviy metodlar.

Ma'lumki, biz hozir rivojlanayotgan davrda yashar ekanmiz har bir sohada xususan, ilm-fan sohasida turli xil o'zgarishlar yuz bermoqda va katta yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikga erishgandan so'ng ilm-fanga, ayniqsa chet tillariga yanada kuchli e'tibor berildi. Nafaqat chet tilini balki har bir fanni zamonaviy innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalangan holda o'rgatish hozirgi zamonning muhim talablaridan biridir.

Shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining birinchi prazidenti I.A.Karimov chet tillarini o'qitish va o'qish bo'yicha bir qancha qarorlar qabul qilganlar. Shu qarorlarga muvofiq zamonaviy darsliklar, texnologiyalar, metodlar yaratildi va darslarni shu innovatsion texnologiyalardan, yangi zamonaviy metod va axborotlardan foydalangan holda tashkil etishga bo'lgan talablar kuchaymoqda. Sababi eski metodlardan ko'ra yangi innovatsion metod, texnologiyalar orqali tashkil qilingan darslarda o'quvchilar ko'proq yetarli bilimlar egallaydi, dunyo qarashlari yanada kengayib, tarbiyalanadi. Shunday ekan, chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o'rganish va o'rgatishda bir qancha samarali metodlar mavjud. Jumladan, dars jarayonlarida mavzuga doir, darajasini hisobga olgan holda ingliz tilidagi video roliklar, dioloklar, kinolar yoki multfilmlardan foydalanish kerak. Shu o'rinda hozirda dars jarayonlarida bir necha metodlardan foydalanib kelinmoqda. Misol uchun:

1. "B-B-B" (BILAMIZ-BILISHNI XOXLAYMIZ-BILDIK)

Bu metod o'quvchilar uchun ingliz tilidagi matinni yaxshi tushinishi, taxlil qilaolish qobiliyatini kuchaytirishga yordam beradi.

2. "QUICK ANSWERS" ya'niy tezkor savol-javob.

Bunda o'tilgan dars yuzasidan o'qituvchi o'quvchilar bilan savol-javob o'tqazadi. Bu metod o'quvchilarning diqqatini tezligini oshirishga yordam beradi.

3. “PANTOMIMA” bu usulda yangi soʻzlardan foydalangan holda imo ishora bilan bir oʻquvchi koʻrsatadi, qolgan oʻquvchilar qaysi soʻzligini topishlari kerak boʻladi. Bu metod oʻquvchilar zerikib qolmasliklari uchun yangicha usulda yangi berilgan lugʻatni soʻrash. Demak, yuqorida berilgan metodlarning har birining oʻziga xos dars jarayonlari uchun foydaliliklari bor.

Xulosa qilib aytish joizki, bugungi rivojlanayotgan davrda chet tillarini oʻqish va oʻqitishga kata eʼtibor berish bilan birgalikda yangi metodlarni, innovatsion gʻoyalar, texnologiyalarni koʻpaytirish ham talab qilinmoqda va darslarda birxillikni oldini olish maqsadida oʻquvchilar uchun yanada aniq, tushunarli boʻlishi maqsad qilib qoʻyilmoqda. Xususan, texnologik vositalar chet tili oʻrganishning har bir qobiliyat (oʻqish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) ga ossonlik bilan yordam beradi.